UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

BIOLOGIYA FANIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM VA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA “SWOT TAHLIL” METODINI DARS JARAYONIDA SAMARALI QO‘LLANILISHI

Ro‘zmatova Sharofat Toshmatjonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Biologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: ruzmatovasarofat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri bo‘lgan SWOT-tahlil metodining imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida "Ovqat hazm qilish sistemasi" mavzusi tanlangan bo‘lib, unda har bir talabaga individual yondashgan holda mavzu bo‘yicha bilimlarini tizimlashtirish, organlar funksiyasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash hamda tashqi omillarning (ovqatlanish gigiyenasi) ta’sirini tahlil qilish jarayonlari bayon etilgan. Ushbu maqolada SWOT-tahlil jadvali orqali talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur metodning qo‘llanilishi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularda tibbiy savodxonlik, o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyat bilan yondashish hamda ma’lumotlarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: interfaol, kuchli, kuchsiz, swot tahlil, imkoniyat, xavfli, sintez, tahlil, kreativ, nnovatsion, bilim, ko‘nikma, malaka, imkoniyat.

Abstract: This article highlights the possibilities of the SWOT-analysis method, one of the modern pedagogical technologies in teaching biology. The topic "Digestive system" was chosen as the object of research, which describes the processes of systematizing knowledge on the subject with an individual approach to each student, identifying strengths and weaknesses in the function of organs, and analyzing the influence of external factors (dietary hygiene). This article presents methodological recommendations for developing students' critical thinking skills and increasing their interest in science through the SWOT-analysis table. The results of the study show that the use of this method not only strengthens students' theoretical knowledge, but also forms in them medical literacy, a responsible approach to their own health, and the skills of making the right decisions through data analysis.

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimida biologiya fanini o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki talabalarda tahliliy fikrlash, muammolarni aniqlash va ularga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Xususan, Odam anatomiyasi fani kursining fundamental bo‘limlaridan biri bo‘lgan “Ovqat hazm qilish sistemasi” mavzusini o‘qitishda an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion strategiyalarni qo‘llash va interfaol metodlardan samarali foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Oliy ta’lim tizimida STEAM va interfaol metodlarni dars jarayoniga tatbiq etish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan bo‘lib bu jarayonda talabalarda bilim, ko‘nikma, malaka mujassamlangan holda kasbiga bo‘lgan mehr va muhabbatni uyg‘otadi. SWOT-tahlil (Kuchli tomonlar, Kuchsiz tomonlar, Imkoniyatlar va Xavflar) metodi odatda iqtisodiyot va boshqaruv sohasida qo‘llanilsa-da, uni biologiya darslarida qo‘llash talabalarda tizimli tahlil qilish, analiz sintez qilish va kreativ

qobiliyatlarini yuksaltiradi.Tibbiy va gigiyenik savodxonlikni oshirish: Hozirgi kunda noto‘g‘ri ovqatlanish va ekologik omillar natijasida hazm qilish tizimi kasalliklari ko‘payib bormoqda. SWOT-tahlil metodi orqali talabalar ovqat hazm qilish organlarining funksional imkoniyatlarini (Strengths) va tashqi muhitdan keladigan xavflarni (Threats) qiyosiy o‘rganishadi, bu esa ularning profilaktik bilimlarini mustahkamlaydi.Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Biologik jarayonlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni tahlil qilish (masalan, fermentlar faolligining pasayishi – "kuchsiz tomon", sog‘lom parhez – "imkoniyat") talabalarda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Asosiy qism: Ta’lim olish, bilimlarni mustaqil egallash, ta’lim va fanning rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishi, ulardagi bag‘ri kenglik, mehnat, sifat faolligi kabi shaxsiy sifatlari rivojlanishiga olib keladi. Bundan ko‘rinadiki, ta’lim tizimida o‘quv-tadqiqot ishlari va o‘quv-tadqiqotchilik hosil qilish amalga oshirishga qodir bo‘lgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi davr pedagogikasining muammolaridan biri hisoblanadi. O‘qitishda kreativ metodlar, o‘quvchilarda ta’limga oid yangiliklarni shaxsan kashf etishga yetaklaydi. Interfaol metodlar o‘ylab topish, aqliy hujum kabi metodlarni o‘z ichiga oladi. Interfaol metodlarning o‘quv jarayoniga qo‘llash orqali ta’limdagi samaradorlikni oshiradi hamda o‘qishda ijodiy (fantastik g‘oyalarni bera olish, ichki kechinmalar bilan kurasha olish, tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, metodlarni tanlay olish kabi) sifatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda interaktiv samarali metodlar orqali talaba bilimini rivojlantirish va chuqurlashtirish, hamda ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirib borishimiz eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Natijada talabalar oliy ta‘limni bitirib chiqayotganda, kasbiy kompetensiyalarga tayyor bo‘lib chiqishadi.

Dars jarayonida SWOT tahlil metodini quyidagicha tartibda qo‘llashni ko‘rib chiqamiz.

Bu metod talabaga:

Mavzuning nazariy qismini tez va oson o‘zlashtirishga
Dars jarayonida ham aqliy ham jismoniy harakat vujudga kelishiga
Tushunish, balki tushuntirish ko‘nikmasi paydo bo‘lishiga,
O‘zaro muloqotga kirishish,
Fikrini bayon qilish va ta’sirli yetqizib berishiga yordam beradi.

Ta’limda bu metodni quyida berilgan to’rtta muhim bo’lgan bosqishlarda ko’rib chiqishimiz mumkin. Men buni tushunarli va har bir bosqichlariga misollar keltirib aniq tahlil qilish uchun oson bo‘lishi uchun jadval ko‘rinishga solib chiqdim.

S - STRENGTHS (Kuchli tomonlar)
1. Biologik regeneratsiya: Me‘da va ichak shilliq qavatining tez yangilanish xususiyati. 2. Fermentativ samaradorlik: Murakkab organik moddalarni (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar) parchalashning yuqori darajadagi ixtisoslashuvi. 3. To‘siq (baryer) funksiyasi: Jigar orqali toksinlarni zararsizlantirish va me‘da shirasi yordamida bakteriyalarni yo‘qotish.
W - WEAKNESSES (Kuchsiz tomonlar)

1. Tashqi ta’sirga sezuvchanlik: Shilliq qavatning kimyoviy (alkogol, achchiq) va termik (juda issiq) omillarga nisbatan himoyasizligi.

2. Funksional yuklama: Hazm jarayonining energiyaga juda bog‘liqligi va uzoq vaqt chaynash zarurati.

3. Selektivlikning buzilishi: Ba’zi hollarda foydali va zararli moddalarni ajrata olmasdan, zaharli moddalarning ham so‘rilishi.

O - OPPORTUNITIES (Imkoniyatlar)

1. Ratsional ovqatlanish: To‘g‘ri rejim orqali tizimning ish faoliyatini 30-40% gacha yaxshilash.

2. Nutritseptika: Vitamin va minerallar so‘rilishini optimallashtirish orqali immunitetni mustahkamlash.

3. Profilaktika: Zamonaviy diagnostika orqali kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish.

T - THREATS (Xavflar)

1. Gidrodinamik buzilishlar: Kam suv ichish natijasida kislotalik muvozanatining buzilishi va tosh hosil bo‘lishi.


2. Mikrobiota disbalansi: Antibakterial dorilar ta’sirida ichak mikroflorasining (disbakterioz) buzilishi.

3. Ekologik omillar: Mahsulotlar tarkibidagi pestitsid va konservantlarning jigar faoliyatiga salbiy zarbasi.


Demak bizda rasmli jadval ko‘rinishda SWOT TAHLIL metodimizni shakllantirganmiz. Bundan maqsad talabalarni bo‘sh jadvaldan ko‘ra rasmli jadval bilan ishlash ularda metodga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, kreativ yondashuvini kuchaytiradi va aqliy salohiyatini ishga soladi va metodga to‘g‘ri yondasha oladi. Dars jarayonida har bir guruhga qog‘oz shakllidagi ushbu tarqatmalar tarqatiladi. Guruhlar metodning har bir bosqichiga o‘zlarining fikr mulohazalarini bildiradilar va guruhdan kelishilgan holda bitta talaba to‘ldirilgan jadval ma‘lumotlarini o‘qib tushuntirib beradilar. Ulardan so’ralgan metodning asosiy maqsadi odam organizmdagi ovqat hazm qilish organlarini kuchil tomonlari, organizm o‘zaro mutanosiblikda ishlashi, har bir hazm organlari ketma-ketlikda o‘z vazifalarini mukammal tarzda bajarishi, kuchsiz tomonlariga turli hil yuqimli kasalliklarni paydo bo‘lishi, parazitlar va viruslarni doimo organizmga zarar keltirishi, imkoniyatlari sog'lom turmush tarziga rioya etish haqida, xavf hatarga notug‘ri ovqatlanish tufayli nosog‘lom hayot turmush tarzini kelib chiqish sabablarini o‘z fikrlarida bayon etsalar, demak

UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

SWOT TAHLIL metodiga to‘g‘ri yondashghgan bo‘ladilar. Kutilgan natija ham shunda samara beradi va mavzuga tanlangan metod to’g’ri va talaba uchun manfatli bo‘ladi.



Yuqoridagi keltirilgan rasm jadval bu SWOT TAHLIL metodi talabalarga dars jarayonida topshiriq tariqasida beriladi va ular bajaradilar. Topshiriq bajarish uchun ularga 6 daqiqa vaqt beriladi. Talabalar bajargandan so ‘ng jadval shu ko‘rinishda bo‘lishi keraak.



Xulosa Demak dars jarayonida talabalar jadvalda keltirilgan javoblar bilan mukammal tarzda bajarsa o‘qituvchi o‘z maqsadiga erishgan va ovqat hazm qilish organlari mavzusini to‘liq o‘zlashtirgan bo‘ladi. Mazkur metod orqali “Ovqat hazm qilish organlari sistemasi” mavzusi talabalar tomonidan nafaqat biologik jarayon sifatida, balki inson salomatligi bilan bevosita bog‘liq hayotiy muammo sifatida ham anglanadi. Bu esa ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Amaliy tajribalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, SWOT tahlil asosida tashkil etilgan darslarda talabalarning faolligi oshadi, mavzuni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi va bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi. Shuningdek, mazkur metodni qo‘llash o‘qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, darsni puxta rejalashtirish va talabalar faoliyatini samarali boshqarishni talab etadi. Umuman olganda, SWOT tahlil metodidan foydalanish biologiya ta’limining sifatini oshirish, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish

hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos darslarni tashkil etishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abraxmatova, M. Biologiya fanidan muammoli ta’lim texnologiyalari / M. Abraxmatova. – T.: O‘qituvchi, 2015. – 112 b.
4. Avliyoqulov, N.X. Didaktikaning boshlanishi: O‘quv qo‘llanma / N.X. Avliyoqulov, N.N. Musayeva. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 132 b.
5. Avliyoqulov, N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari / N.X. Avliyoqulov. – T.: Muallif, 2001. – 68 b.
6. Azimov, I. Biologiya (Odam va uning salomatligi): 8-sinf uchun darslik / I. Azimov, O. Mavlonov, A. Qosimov. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 192 b.
7. Gafurov, A.T. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish / A.T. Gafurov. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 128 b.
8. Ismoilov, B. Biologik tushunchalarni shakllantirish metodikasi / B. Ismoilov. – T.: Bilim, 2005. – 104 b.
9. Shukurov, A. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslarida mantiqiy topshiriqlar / A. Shukurov. – T.: Bilim, 2002. – 96 b.
10. Suxov, V.P. Sistemno-deyatelnostniy podxod v prepodavanii biologii / V.P. Suxov. – M.: Prosveshenie, 2010. – 176 s.
11. Tolipova, J.O. Biologiya o‘qitish metodikasi: metodik qo‘llanma / J.O. Tolipova. – T.: Bilim, 2004. – 160 b.
12. Tolipova, J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari / J.O. Tolipova, A.T. Gafurov. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 116 b.
13. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Didaktikaning boshlanishi. Qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. -132b.
14. Beshimov A.S. Odam va uning salomatligini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Istiqlol. 2008. – 102b.
15. Ergasheva G.S. Biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 220b.